

Mevali o'simliklar




Mevali o'simliklar odam yesa bo'ladigan meva beruvchi daraxtlar yoki butalar bo'lib, ular bog' va plantatsiyalarda yetishtiriladi. Mevali o'simliklar bog'larga chiroy bag'ishlaydi, havoni tozalaydi, mevalari esa odamlar, qushlar va hasharotlar uchun oziqa bo'lib xizmat qiladi. Ularning tarkibida inson uchun juda muhim bo'lgan vitaminlar, minerallar va shakar kabi moddalar mavjud.




Bizning mamlakatimiz o'zining mevali bog'lari bilan mashhur. Bu yerda o'rik, nok, olcha, olma, shaftoli va shu kabi boshqa mazali mevalar yetishtiriladi. Biz bu mevalarni yangi uzilgan holda iste'mol qilamiz yoki ulardan turli xil sharbat, murabbo va kompotlar tayyorlaymiz.



Nok – barglari oval shaklida bo'lgan, bahorda chiroyli gullab, yozda shirin mevalar beradigan daraxt. Mevasining 80 foizi suvdan iborat bo'lib, chanqoqni yaxshi qondiradi.




Olxo'ri – mevalari binafsha yoki sariq rangli, dumaloq yoki cho'zinchoq, barglari mayda, oval shaklida bo'lgan daraxt. Mevasi vitaminlarga boy bo'lib, yurakni mustahkamlaydi.



Olma – barglari yashil, oval shaklida, mazali va foydali meva beruvchi daraxt. Bahorda juda chiroyli gullaydi va o'ziga asalarilarni jalb qiladi.



Xurmo – mevalari to'q sariq rangli, shirin, vitaminlarga boy yirik bargli daraxt. Xurmo quyoshsevar o'simlik.



Anjir – mevalari yumshoq, shirin, barglari katta va o'yma shakldagi daraxt yoki buta. U iliq iqlimli mamlakatlarda o'sadi.



Anor – mevalari qizil rangli, ichida shirali donlari bor, barglari yaltiroq, shoxlari ingichka, buta yoki daraxt.



Mevalarning inson salomatligi uchun qanday foydasi bor?

Daraxtlar orasida **tut daraxti** alohida o'rin egallaydi. Uning barglari ipak qurti uchun oziqa hisoblanadi. Ipak qurti pillalaridan tabiiy ipak olinadi. Hozirgi kunda manzarali tut daraxtlari shahar ko'chalarini bezash uchun ekiladi. Uning mevasi juda mazali va foydali.



1. O'zbekistonda qanday mevali daraxtlar o'sadi?
2. Qanday mevalar daraxtlarda, qanday mevalar esa butalarda yetilib, pishadi?
3. Nima uchun tut daraxti ipak qurti daraxti deb ataladi?
4. Mevali daraxtlar qanday parvarish qilinadi?
5. Mevali daraxtlar odamlar va tabiat uchun qanchalik muhim?



Istalgan mevali daraxt yoki meva haqida ma'lumot tayyorlang.

